

FARG'ONA VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI


*Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-iyun*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 73-241-97-68*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1-iyul holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 7 649 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 147 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 7 502 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 12 626,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 107,5 % ga yetdi. Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1 280,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 131,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 11 346,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 105,3 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 159,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 120,1 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Farg'ona viloyati	12 626,6	107,5
shaharlar		
Farg'ona	1 934,1	108,2
Qo'qon	2 076,4	108,8
Quvasoy	262,0	108,3
Marg'ilon	1 501,8	107,7
tumanlar		
Oltiariq	550,1	107,8
Qo'shtepa	285,1	107,6
Bag'dod	354,8	106,2
Buvayda	714,8	106,1
Beshariq	486,6	107,1
Quva	612,7	107,9
Uchko'prik	1 581,7	107,5
Rishton	326,6	106,2
So'x	340,6	105,2
Toshloq	338,6	107,0
O'zbekiston	268,8	105,8
Farg'ona	367,5	105,5
Dang'ara	293,3	106,6
Furqat	141,4	107,6
Yozyovon	189,8	106,5


2024- yilning yanvar-iyun oylarida 2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan viloyatning Qo'qon (**108,8** %), Quvasoy (**108,3**) va Farg'ona (**108,2**) shaharlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-iyun)




So'nggi 5 yillikda (2020- 2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 107,6 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda) (2023- yil ,2024-yil yanvar-iyun oylari)



2024- yilning yanvar-iyun oylarida o'sish sur'ati **107,5 %** ni tashkil qildi.



Qo'qon sh	2 076,4
Farg'ona sh.	1 934,1
Uchko'prik	1 581,7
Marg'ilon sh	1 501,8
Buvayda	714,8
Quva	612,7
Oltiariq	550,1
Beshariq	486,6
Farg'ona	367,5
Bag'dod	354,8
So'x	340,6
Toshloq	338,6
Rishton	326,6
Dang'ara	293,3
Qo'shtepa	285,1
O'zbekiston	268,8
Quvasoy sh	262,0
Yozyovon	189,8
Furqat	141,4

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Qo'qon shahri 16,4 % bilan 2 076,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Furqat tumani 1,1 % bilan 141,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi

2024-yilning yanvar-iyun oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 11 346,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 5,3% ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 89,9 % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 31,9 % ga o'sdi va 1 280,6 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining


10,1 % ulushiga to'g'ri keldi.



Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha So'x t (99,2 %), Quvasoy (98,8 %) va Toshloq (98,7 %) shahari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 10,1 % ni tashkil etib, eng katta ulush Uchko'prik (38,0 %), Dang'ara (15,5 %), tumanlarida kuzatildi.

10,1 %

89,9 %



Yirik korxonalar

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*


Oltiariq	2 396,9
Qo'shtepa	1 361,9
Bag'dod	1 515,4
Buvayda	2 876,5
Beshariq	1 997,6
Quva	2 213,6
Uchko'prik	6 517,1
Rishton	1 498,9
So'x	4 039,7
Toshloq	1 549,0
O'zbekiston	1 132,0
Farg'ona	1
Dang'ara	651,9 1 647,7
Furqat	1 107,2
Yozyovon	1 577,4

Farg'ona sh	5 982,4
Qo'qon sh	6 706,8
Quvasoy sh.	2 579,0
Marg'ilon sh	5 900,8

2024- yilning yanvar-iyun oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

3 094,7 ming. so'mni (2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 105,3 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Qo'qon (6 706,8 ming. so'm), Farg'ona (5 982,4 ming. so'm) va Marg'ilon (5 900,8 ming. so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-iyun), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy voki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Farg'ona viloyati	1 159,2	120,1
shaharlar		
Farg'ona	161,8	154,9
Qo'qon	104,6	94,2
Quvasoy	24,9	101,6
Marg'ilon	115,5	101,1
tumanlar		
Oltiariq	29,8	120,4
Qo'shtepa	37,3	72,0
Bag'dod	88,4	303,5
Buvayda	142,1	112,0
Beshariq	136,2	127,6
Quva	96,2	143,0
Uchko'prik	32,9	98,0
Rishton	65,7	124,9
So'x	22,8	159,4
Toshloq	21,8	100,2
O'zbekiston	24,2	114,3
Farg'ona	11,9	57,3
Dang'ara	4,8	88,3
Furqat	0,9	63,8
Yozyovon	37,5	112,5


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi
o'sish sur'atlari**
(2024- yil yanvar-iyun)














**Hududlar kesimida uyushmagan
savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm**
(2024- yil yanvar-iyun)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-iyun oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 159,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 120,1 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 749,8 mlrd. so'mni (129,0%), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 409,4 mlrd so'mni tashkil etdi (106,6 %).













2024-yilning yanvar-iyun oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 749,8 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (275,4 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>275,4 mlrd. so'm</p>  <p>36,7 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>65,9 mlrd. so'm</p>  <p>8,8 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>129,4 mlrd. so'm</p>  <p>17,3 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>33,8 mlrd. so'm</p>  <p>4,5 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>47,7 mlrd. so'm</p>  <p>6,4 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>45,1 mlrd. so'm</p>  <p>6,0 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>25,1 mlrd. so'm</p>  <p>3,3 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>20,9 mlrd. so'm</p>  <p>2,8 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>18,6 mlrd. so'm</p>  <p>2,5 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>17,8 mlrd. so'm</p>  <p>2,4 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>11,6 mlrd. so'm</p>  <p>1,6%</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>58,5 mlrd. so'm</p> <p>7,7 %</p>

2024- yilning yanvar-iyun oyida, Viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi 409,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 318,6 mlrd.so‘m, qo‘y va echkilar – 84,1 mlrd. so‘mni, otlar – 4,3 mlrd. so‘mni, parrandalar – 2,4 mlrd. so‘mni tashkil qildi.


Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo‘lgan qoramollar</p> <p>173,9 <i>mlrd. so‘m</i></p>  <p>42,5 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar</p> <p>80,8 <i>mlrd. so‘m</i></p>  <p>19,7 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo‘lgan yosh mollar</p> <p>63,9 <i>mlrd. so‘m</i></p>  <p>15,6 %</p>
<p>Qo‘ylar</p> <p>82,5 <i>mlrd. so‘m</i></p>  <p>20,1 %</p>	<p>Otlar</p> <p>4,3 <i>mlrd. so‘m</i></p>  <p>1,1 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>1,6 <i>mlrd. so‘m</i></p>  <p>0,4 %</p>
<p>Kurka, o‘rdak, g‘oz</p> <p>0,8 <i>mlrd. so‘m</i></p>  <p>0,2 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>1,2 <i>mlrd. so‘m</i></p>  <p>0,3 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0,3 <i>mlrd. so‘m</i></p>  <p>0,1 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0,1 <i>mlrd. so‘m</i></p>  <p>0,01%</p>		

2024- yil 1- iyul holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 931 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 3 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 929 tani tashkil qildi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Farg'ona viloyati	334,0	106,6
shaharlar		
Farg'ona	144,2	117,9
Qo'qon	27,8	115,4
Quvasoy	5,6	102,6
Marg'ilon	48,2	112,0
tumanlar		
Oltiariq	7,2	77,9
Qo'shtepa	7,2	106,9
Bag'dod	4,5	76,8
Buvayda	5,1	103,4
Beshariq	9,0	105,1
Quva	9,4	84,7
Uchko'prik	9,7	92,8
Rishton	9,5	94,9
So'x	6,6	79,8
Toshloq	7,5	82,9
O'zbekiston	5,0	94,5
Farg'ona	7,9	88,8
Dang'ara	7,1	96,9
Furqat	6,9	98,2
Yozyovon	5,6	99,4

2024- yilning yanvar-iyun oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 334,0 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 106,6 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 99,3 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Farg'ona viloyati	2 484,1	100,0
Shaharlar		
Farg'ona	752,6	30,3
Qo'qon	1083,1	43,6
Quvasoy	8,0	0,3
Marg'ilon	177,0	7,1
Tumanlar		
Oltiariq	18,6	0,7
Qo'shtepa	2,4	0,1
Bag'dod	4,1	0,2
Buvayda	10,3	0,4
Beshariq	2,6	0,1
Quva	8,0	0,3
Uchko'prik	59,7	2,4
Rishton	4,0	0,2
So'x	22,1	0,9
Toshloq	41,4	1,7
O'zbekiston	8,4	0,3
Farg'ona	2,6	0,1
Dang'ara	114,3	4,6
Furqat	12,2	0,5
Yozyovon	152,6	6,1


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Qo'qon (1 083,1 mlrd. so'm), Farg'ona (752,6 mlrd. so'm) va Marg'ilon (177,0 mlrd. so'm) shahalari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so‘m)




2024- yilning yanvar-iyun oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 2 484,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 17,3 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 857,7 mlrd. so‘m (o‘sish sur‘ati – 99,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 1 626,3 mlrd. so‘mni (o‘sish sur‘ati – 2,6 m ko‘paydi) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 8 239,3 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 7,0 % ga o‘ydi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining 7 795,2 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 107,5 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 94,6 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATI

2024- yil 1- iyul holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 4 218 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 24 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 4 194 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘shish sur‘atlariga ega eng yirik korxonalar Uchko‘prik t (84,2 m.), Bag‘dod sh (5,1 m.) va So‘x (2,0 m.) tumanlarida kuzatildi.

	Hajmi, mlrd. so‘m	2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Farg‘ona viloyati	8 239,3	107,0
Shaharlar		
Farg‘ona	1769,5	106,6
Qo‘qon	1760,9	110,5
Quvasoy	293,1	111,5
Marg‘ilon	1970,4	105,4
Tumanlar		
Oltiariq	164,0	101,6
Qo‘shitepa	43,3	64,2
Bag‘dod	59,7	104,9
Buvayda	143,0	60,1
Beshariq	111,7	111,7
Quva	43,0	104,6
Uchko‘prik	690,4	163,5
Rishton	35,2	110,7
So‘x	3,7	36,9
Toshloq	592,3	101,4
O‘zbekiston	123,7	103,0
Farg‘ona	134,8	65,7
Dang‘ara	205,9	107,3
Furqat	53,7	106,5
Yozyovon	41,1	120,4